

# TTPUda badminton bo'yicha o'rtoqlik turniri bo'lib o'tdi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining beshta muhim tashabbuslarini birgalikda amalga oshirish, shuningdek, Toshkent shahri va Toshkent viloyatidagi xorijiy oliy ta'lim muassasalari filiallari o'rtasidagi hamkorlik Memorandumida belgilangan tadbirlarni tashkil etish maqsadida joriy yilning 22 may kuni Toshkent shahridagi Turin politexnika universitetida badminton bo'yicha do'stlik turniri bo'lib o'tdi.

Turnirni Toshkentdagi Turin politexnika universiteti rektori Olimjon To'yichiyev tadbirni kirish so'zi bilan ochib, barcha ishtirokchilarga omad, yorqin g'alabalar va ajoyib kayfiyat tiladi. Turnirni O'zbekiston badminton Federatsiyasi murabbiy-menejeri Barno Badalova hakamlik qilib, badminton o'ynash qoidalari haqida gapirdi.

Turnir do'stona va qiziqarli muhitda o'tdi, musobaqalar davomida yoshlar badminton o'ynash tajribasi va amaliyoti bilan o'rtoqlashdilar. Barcha jamoalar munosib o'ynab, yaxshi muvofiqlashtirilgan o'yinni namoyish etishdi.

Turnir yakunlari bo'yicha:

**1-o'rinni** Toshkentdagi Singapur menejmentni rivojlantirish instituti jamoasi

**2-o'rin** Toshkentdagi Turin politexnika universiteti jamoasi

**3-o'rin** D. I. Mendeleev nomidagi Rossiya kimyo-texnologiya universitetining Toshkent shahridagi filiali egalladi.

Sovrinli o'rinlarni egallagan jamoalar diplom va medallar bilan taqdirlandi, qolgan ishtirokchilar esa sertifikatlar oldi.

Toshkentdagi Turin politexnika universiteti talabalarini turnirda 2-o'rinni egallaganlarni tabriklaymiz va turnirning barcha ishtirokchilariga faol ishtiroki va chiroyli o'yinlari uchun minnatdorchilik bildiramiz!









